XITOY TILIDA YANGI SO‘ZLARNI TARJIMA QILISH SAN’ATI

Kasimov Ilxom Ashirovich, *Toshkent gumanitar fanlar universiteti xitoy tili mutaxassisi, Xalqaro Konfutsiylik Assotsiatsiyasi a’zosi,*
Choriyeva Mahliyo Furqat qizi, *Toshkent gumanitar fanlar universiteti xitoy tili o‘qituvchisi,*
Abdusamatova Madina Dilmurod qizi, *Toshkent gumanitar fanlar universiteti filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishi (xitoy tili) talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada asosan ingliz tilidan o‘zlashgan hamda hozirda xitoy tilida keng qo‘llaniladigan ayrim neologizmlar misolida xitoy tilining o‘ziga xos tarjima usullari o‘rganildi, tarjima atamalarining maqbulligi tahlil qilindi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, tarjima qilinuvchi tildagi urfga kirgan so‘zlar biror xorijiy tilga tarjima qilinayotganda tarjima maqsadli tilning kognitiv kontekstiga qanchalik mos kelsa, uning qabul qilinish darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Bu o‘rinda, albatta, tarjima qilinayotgan tilning qanchalik o‘ziga xosligi, tarjima imkoniyatlari va moslashuvchanligi muhim rol o‘ynaydi. Bu esa tarjima atamalarining original chiqishiga ham xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: xitoy tili, neologizm, manba tili va tarjima qilinayotgan til, transliteratsiya, semantik, erkin tarjima, atoqli otlar, tovush-ma’no kombinatsiyasi, optimallashtirish.

Аннотация: В данной статье в основном изучаются специфические методы перевода китайского языка на примере некоторых неологизмов, заимствованных из английского и широко используемых в настоящее время в китайском языке, а также анализируется приемлемость переводческих терминов. Исследования показывают, что при переводе слов, вошедших в традицию целевого языка, на иностранный язык, чем больше перевод соответствует когнитивному контексту целевого языка, тем выше уровень его приемлемости. Конечно, уникальность, переводческие возможности и гибкость целевого языка играют в этом важную роль. Это также способствует оригинальности переводческих терминов.

Ключевые слова: китайский язык, неологизм, исходный и целевой языки, транслитерация, семантика, свободный перевод, имена собственные, звуко-значимое сочетание, оптимизация.

Abstract: This article mainly studies the specific translation methods of the Chinese language, using the example of some neologisms that were adopted from English and are now widely used in Chinese, and analyzes the acceptability of translation terms. Studies show that when words that have entered the tradition of the target language are translated into a foreign language, the more the translation matches the cognitive context of the target language, the higher its acceptance level. Of course, the uniqueness, translation capabilities and flexibility of the target language play an important role in this. This also contributes to the originality of the translation terms.

Keywords: Chinese, neologism, source language and target language, transliteration, semantics, free translation, proper nouns, sound-meaning combination, optimization.

Til – madaniyat tashuvchisi, iqtisodiyot va madaniyatning turli bosqichlarida yuz beradigan o‘zgarishlar tilda aks etadi. Zamon rivojlanishi bilan doimiy ravishda yangi so‘zlar paydo bo‘ladi, ular asta-sekin ommalashib, mustahkamlanib, nutqimizning bir qismiga aylanib boradi. Faqatgina ushbu yangi so‘zlarni tushunish, tarjima qilish va o‘zlashtirish orqali biz

madaniyatlararo samaraliroq muloqotni amalga oshirishimiz va zamon bilan hamnafas bo‘lishimiz mumkin. Tilning rivojlanishi, uning boyib borishi albatta tarjima sohasi bilan ham chambarchas bog‘liq. Bu esa tarjima sohasi oldiga yangidan-yangi sinovlarni qo‘yadi.

Til doim o‘zgarishda: zamon rivojlanishi bilan har bir tilning lug‘ati boyib boraveradi. Har bir davrda paydo bo‘lgan so‘zlar o‘sha davr jamiyat qiyofasini aks ettiradi, xususiyatlarini qayd etadi va omma psixologiyasini namoyon etadi. Jamiyatda urfga aylangan mashhur so‘zlarning tarjima qilish usullari, ularni tarjima qilishning maqbulligini o‘rganish va tarjima strategiyalarini takomillashtirish ularni boshqa tilga o‘zlashgandan keyingi taqdirini hal qiladi – o‘sha so‘zlar bilan bog‘liq chalkashliklar, hatto noto‘g‘ri tushunishlarni samarali ravishda kamaytirishi va oldini olishi mumkin, shu bilan manba tilidagi tarixiy, madaniy unsur-belgilarni boshqa tilde so‘zlovchilar guruhiga yaxshiroq yetkazishga yordam beradi. “Tarjima jarayonida nafaqat lingvistik ekvivalentlik, balki madaniy kontekstni to‘g‘ri yetkazish ham katta ahamiyat kasb etadi”.[1]

Zamon ilm-fan va texnologiyalar tili sifatida ingliz tili xitoy tiliga ancha sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayni paytda xitoy tiliga o‘zlashgan neologizmlarning aksariyati ingliz tili orqali kirib kelgan. Xitoy Tarjimonlar Assotsiatsiyasi tomonidan 2024-yil mart oyida e’lon qilingan “Xitoy Tarjima Sanoatini Rivojlantirish Hisoboti”ga ko‘ra, 2023-yilda “xorijiy tillardan xitoy tiliga” tarjima xizmatlarining eng yuqori ulushi ingliz tili hissasiga to‘g‘ri keladi – 33,6%.[2]

Xitoy tilida yangi so‘zlarni tarjima qilish, o‘zlashtirish san’ati mavzusida o‘zbek tilida yozilgan maqolalar, bajarilgan ilmiy ishlar juda kam. Yozilgan ilmiy maqolalar qatoriga K.Sh. Sulaymanov va S.A. Ziyayevalarning “Xitoy tilida so’z o‘zlashtirish usuli”, Husan Tugalovning “Xitoy tilida o‘zlashma so‘zlarning tarjimadagi muammolari”[3] kabilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bajarilgan ishlarning kamligi bu borada hali qilinishi kerak bo‘lgan ishlar talaygina, mazkur tadqiqot mavzusining hanuz dolzarb ekanligini anglatadi.

Xitoy tilidagi yangi so‘zlarni o‘zlashtirish – neologizmlarni tarjima qilishning asosiy usullari transliteratsiya[4] (ya’ni ohangga asoslangan tarjima, fonetik – tovushga taqlid), semantik (ma’noga asoslangan, ya’ni erkin tarjima, ma’no ko‘chishi) tarjima hamda transliteratsiya va semantik tarjimaning kombinatsion tarjima usullarini (aralash usul) o‘z ichiga oladi. Eng keng tarqalgan usul – xorijiy so‘zning talaffuzini xitoy iyerogliflarining o‘qilish ohangiga moslashtirish yordamida (transliteratsiya) ifodalashdir. Muayyan texnika va asosiy jihatlar quyidagilar:

1. Transliteratsiya, ya’ni ohangga asoslangan tarjima usuli: o‘zlashtirilayotgan xorijiy so‘zlar xitoy tilidagi aytilishi nisbatan yaqinroq bo‘lgan iyerogliflar bilan yoziladi va o‘qiladi. Bu usulda ma’no emas, talaffuz asosiy o‘rinda turadi. Masalan: 咖啡 [kāfēi] – *ing.* coffee – kof; 模特 [mótè] (model) so‘zi fransuzcha “modèle” so‘zining to‘g‘ridan-to‘g‘ri transliteratsiyasi bo‘lib, u xitoy tili tizimiga inglizcha “model” so‘zi orqali kirgan. Transliteratsiya usulida so‘zlarni o‘zlashtirish ba’zi hollarda manba tilidagi madaniy belgilarga, ijtimoiy voqelarga ham ramziy

[1] Xitoy tilidan o‘zbek va o‘zbek tilidan xitoy tiliga qilingan asarlar tarjimasi. Sh. Xasanova / International scientific and practical conference Uzbekistan-China: development of historicalcultural, scientific and economic relations, 5(26), Nov., 2025

[2] 发布的中国翻译行业发展报告. 中国翻译协会，2024 年 3 月. 2024 China Translation Industry Development Report (1). https://tandf.figshare.com

[3] Husan Tugalov. Xitoy tilida o'zlashma so'zlarning tarjimadagi muammolari. Academic Research in Educational Sciences, Volume 3 | Issue 6 | 2022.

[4] Transliteratsiya – bir alfavit harflarini boshqa alfavit harflari bilan yozish.

ishora qiladi. Masalan, 谷歌 [gǔgē] so‘zi inglizcha “Google”[5] so‘zining transliteratsiyasidir. Xitoycha 谷歌 [gǔ gē deb talaffuz qilinadi) nomi asl inglizcha “Google” (/ˈguːgəl/ deb talaffuz qilinadi) so‘ziga juda o‘xshash bo‘lib, bu transliteratsiyaning asosiy xususiyatlariga to‘g‘ri keladi. Ushbu tarjima termini nafaqat fonetik moslik talabiga javob beradi, balki madaniy ma’nolarga ega: “谷” (gǔ, tarjimasi – “vodiy”) ramziy jihatdan “Silikon vodiysi”ni (硅谷 [guīgǔ], Silicon Valley, *zamonaviy texnologik innovatsiyalar manbai*) bildirsa, “歌” (gē, “qo‘shiq”) shod-xurramlikni anglatadi. Ko‘plab nufuzli ochiq materiallar 谷歌 ning Google’ning transliteratsiyasi ekanligini tasdiqlaydi. Shuning uchun, 谷歌 [gǔgē] inglizcha Google so‘zning odatiy transliteratsiyasi bo‘lib, uni xitoy tiliga o‘zlashtirishda, brendni mahalliylashtirishda “ishonchlilik, ifoda va nafislik” tamoyillari ham hisobga oladi.

Ta’rifi va qo‘llanilish doirasi: boshqa tildan o‘zlashayotgan yangi so‘zlarni talaffuziga qarab tegishli xitoycha mos keladigan so‘zlar, ya’ni ekvivalent iboralar tarzida tarjima qilish usuli. Xitoy tilida bu usus juda keng qo‘llaniladi hamda xitoy tilining o‘ziga xos tarjima usullaridan biri hisoblanadi. Bu usul asosan atoqli otlar (masalan, shaxs ismlari, joy nomlari) hamda ba’zi atoqli bo‘lmagan otlar (masalan, ovqatlanish madaniyati, texnologik tushunchalar) uchun ishlatiladi.

Masalan:

1) atoqli otlar: a) shaxs nomlari: 阿里舍尔•纳沃伊 [Ālǐshè’ěr Nàwòyī][6] – Alisher Navoiy (O‘zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi), 亚历山大 [Yàlìshāndà] – Aleksandr; b) joy nomlari: 塔什干 [Tǎshígān] – Toshkent, 撒马尔罕 [Sāmǎ’ěrhǎn] – Samarqand;

2) atoqli bo‘lmagan otlar: a) ovqatlanish madaniyati: 披萨 [pīsà] – pitsa, 馕 [náng][7,8] – non, 汉堡包 [hànbǎobāo] yoki 汉堡 [hànbǎo]– hamburger, 麦当劳 [màidāngláo] – McDonald's[9]; b) texnologiyaga oid va kundalik tushunchalar: 酷 [kù, bu so‘z ingliz tilidagi ‘cool’ so‘zining ohang tarjimasidir] – ajoyib, zo‘r, 沙发 [shāfā][10], bu so‘z ingliz tilidagi ‘sofa’ so‘zining ohang tarjimasidir] – divan, 沙龙 [shālóng, bu so‘z fransuz tilidagi ‘salon’ so‘zning ohang tarjimasidir] – salon.

Afzalliklari. Asl talaffuz xususiyatlarini saqlab qoladi, madaniy jihatdan o‘ziga xos so‘zlar uchun mos keladi va ularning so‘zma-so‘z tarjimadagi noaniqlik, ma’noviy muhmallikning oldini oladi.

Cheklangan jihatlari. Kontekstga asoslangan umumiy tarjima atamasini tanlash kerak, yangi atamalar yaratishdan qochish kerak (masalan, ‘Internet’ so‘zining bir vaqtlar qo‘llanilgan 因特网 [yīntèwǎng] va hozirda keng qo‘llanilayotgan 互联网 [hùliánwǎng] yoki 网络 [wǎngluò] terminlari o‘rtasidagi dastlabki raqobat).

---

[5] Қосимов И., Ронг Ли. Хитойча-ўзбекча сўзлашгич. 3-нашр. – Тошкент: “Академнашр”, 2019. – 260-б.

[6] https://bkrs.info/slovo.php?ch=阿里舍尔•纳沃伊: 阿里舍尔•纳沃伊 ālǐshè’ěr nàwòyī Алишер Навои (узбекский поэт, мыслитель и государственный деятель).

[7] 现代汉语词典. 第 6 版. 商务印刷馆，北京：2015. 第 934 页。

[8] Qosimov I., Ma Syuemey. O'zbekcha-xitoycha lug‘at. – Toshkent: “Akademnashr”, 2023. – 169-b.

[9] Xitoy tilida so’z o‘zlashtirish usuli. Sulaymanov Kamoliddin Shovkat o`g`li, Ziyayeva S.A. / Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya maqolasi.

[10] Qosimov I., Ma Syuemey. O'zbekcha-xitoycha lug‘at. – Toshkent: “Akademnashr”, 2023. – 59-b.

2. Ma’noga asoslangan (semantik), ya’ni erkin tarjima usuli: o‘zlashtirilayotgan xorijiy so‘zlarning ma’nosi xitoy tilidagi mavjud so‘zlar orqali tarjima qilinadi. Masalan, 电脑 [diànnǎo] – *ing.* electronic brain (computer) – “elektr miya” (kompyuter).

Ta’rifi va qo‘llanilish doirasi: bu so‘zlarning so‘zma-so‘z ma’nosini yoki asosiy tushunchasini tahlil qilish orqali, xitoy tilidagi mos keladigan ibora yoxud ifoda usuli yordamida tarjima qilishni o'z ichiga oladi. Bu tarkibiy qismlariga bo‘linishi mumkin bo‘lgan aniq ma’noga ega yangi so‘zlar uchun mos keladi.

Aniq qo‘llanilishi:

1) murakkab so‘zlarda: **快餐** [kuàicān] – ‘fast food’ (tez tayyor bo‘ladigan taomlar), 绿色食品 [lǜsè shípǐn] – ‘green food’ (ekologik toza mahsulot), 绿卡 [lǜkǎ] – ‘green card’ (yashil karta,), 热线 [rèxiàn] – ‘hotline’ (ishonch telefoni);

2) iqtisodiy va ijtimoiy hodisalarni ifodalashda: 传销 [chuánxiāo] – ‘multi-level marketing’ (ko‘p darajali marketing – MLM yoki tarmoqli marketing), **黑名**单 [hēimíngdān] – ‘blacklist’ (“qora ro‘yxat”), **泡沫**经济 [pàomò jīngjì] – ‘bubble economy’ (pufakchali iqtisodiyot), **黑客** [hēikè] – hacker (xaker);

3) dinamik optimallashtirishda: tarjima terminlari til odatlari rivojlanishi bilan soddalashtirladi, masalan, ingliz tilidagi ‘cellular telephone’ atamasi **携**带式活动电话 [xiédài shì huódòng diànhuà] (portativ mobil telefon), **大哥大** [dàgēdà] so‘zlaridan oxiri **手机** [shǒujī] (qo‘l telefon, mobil telefon) deya nomlana boshlandi.

Afzalliklari. Xitoycha ifoda odatlariga mos keladi, tushunish va tarqatish oson.

Cheklangan jihatlari. Semantik (ma’noviy) tafovutlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan haddan tashqari, oshirib yuboriladigan so‘zma-so‘z tarjimalardan saqlanish kerak, masalan, ingliz tilidagi ‘boomerang baby’ (“boomerang bola”) so‘zi dastlab **回**归家庭的子女 [huíguī jiātíng de zǐnǚ] (“oilalariga qaytayotgan bolalar”) tarzida tarjima qilingan, biroq keyinchalik 还巢儿 [hái cháo r] (“uyasiga qaytgan bola”) tarzida optimallashtirilgan.

3. Transliteratsiya va semantik tarjimaning kombinatsion, ya’ni tovush-ma’no kombinatsiyasi tarjima usul: fonetik va semantik usullarning kombinatsiyasi – aralash usul. Boshqacha qilib aytganda, bu usul transliteratsiya va semantik tarjimani birlashtirgan tarjima yondashuvidir. Bunda xorijiy so‘zning bir qismi tovush-ohangga, boshqa qismi esa ma’no-mazmuniga qarab tarjima qilinadi – o‘zlashadi. Masalan, 维他命 [wéitāmìng] (vitamin): xitoycha iyeroglifning o‘qilishi bo‘lmish “wéitāmìng” inglizcha "vɪtəmɪn" so‘zi talaffuziga ancha yaqin – bu ohangning qisman saqlab qolinganini anglatadi, ma’noviy jihatdan esa bu vitamin so‘zining xitoycha aytilishidan hosil bo‘lgan iyerogliflar kombinatsityasi (维他命 [wéitāmìng]) so‘zma-so‘z tarjima qilinganda “hayotini saqlab qolish” degan ma’noni anglatadi – bu esa ma’noning manba tilidagi so‘z funksiyasi, ma’nosiga nisbatan yaqinlashtirilganidir, ya’ni “hayot, sog‘liq uchun foydali”.

Ta’rifi va qo‘llanilish doirasi: bu atama transliteratsiya va semantik tarjimani birlashtiradi, talaffuz va ma’noni hisobga oladi va madaniy xususiyatlarga va aniq ma’nolarga ega bo‘lgan so‘zlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Aniq qo‘llanilishi:

1) fan va tibbiyot sohalarida: masalan, ‘clone’ so‘zi – 克隆 [kèlóng] – ‘cl’ talaffuzini saqlab qoldi (klon), shu bilan birga “隆” so‘zi “replikatsiya” ma’nosini anglatadi; ‘test-tube baby’ – 试管婴儿 [shìguǎn yīng’ér] (sinov naychasi (probirka)dan tug‘ilgan chaqaloq) – so‘zi “sinov naychasi / probirka” va “chaqaloq” obrazini birlashtiradi (probirka chaqaloq).

2) brend va madaniy atamalar: masalan, ‘Coca-Cola’ – 可口可乐 [kěkǒukělè] – so‘zining birinchi ikki iyerogliflari transliteratsiyasi bo‘lmish “可口” (tarjimasi “mazali, totli, lazzatli, xushta’m”) so‘zi ta’m sezishni ifodalaydi, “可乐” [kělè] (tarjimasi “kayfiyatni ko‘taradigan, xushkayfiyat ulashadigan”) esa yoqimli kechinmani anglatadi, ya’ni kokakola ichimligining xitoycha tarjimasi “xushta’m ba kayfiyatni ko‘taruvchi” degan ma’noni bildiradi.

Afzalliklari. Madaniy tafovutlarni semantik yetkazish bilan muvozanatlashtiradi, tarjima terminlarning qabul qilinish darajasini oshiradi.

Cheklangan jihatlari. Zo‘rma-zo‘raki, qotib qolgan kombinatsiyalardan saqlanish uchun mahorat bilan ishlab chiqishni talab etadi. Masalan, “Benz” (Mercedes-Benz) avtomobili dastlab 本茨 [Běn cí] tarzida tarjima qilingan, keyinchalik uning tarjimasi 奔驰 [bēnchí] tarzida optimallashtirilgan. 奔驰 so‘zining ma’nosi “yeldek uchmoq, zing‘illamoq, g‘izillamoq” bo‘lib, bu so‘z avtomobil nomining tarjimasi sifatida ramziy ma’noga ham ega bo‘lgan hamda ayni paytda eng maqbul tarjima variant hisoblanadi.

Tarjima amaliyotidagi asosiy tamoyillar:

Madaniy moslashuvchanlik: so‘zlarning kelib chiqish sohasiga qarab usul tanlanadi. Masalan, ilmiy-texnik atamalarda (masalan, “qora tuynuk” – 黑洞 [hēidòng]) ko‘pincha semantik tarjima usulidan foydalaniladi, ovqatlanish madaniyati oid atamalarda (masalan, “pitsa”, *ing.* “pizza” – 披萨 [pīsà]) esa ko‘pincha transliteratsiya usuli qo‘llaniladi.

Dinamik optimallashtirish: tarjima atamalari til odatlarining evolyutsiyasiga muvofiq tartibga solinishi kerak. Masalan, ingliz tilidagi “cellular telephone” (携带式活动电话 [xiédài shì huódòng diànhuà]) so‘zi oxir-oqibat 手机 [shǒujī] (“qo‘l telefoni”) ga soddalashtirildi, bu esa tejamkorlik tamoyilini aks ettiradi.

Noaniqliklardan saqlanish: erkin tarjima semantik ravshanlikni ta’minlashi kerak; masalan, inglizcha “boomerang baby” optimallashtirilgandan so‘ng xitoycha ifoda odatlariga ko‘proq mos keldi.

Madaniy xususiyatlarni saqlab qolish kerak: transliteratsiya usuli G‘arb madaniyati obrazlarini saqlab qolgan “salon” (沙龙 [shālóng]) kabi atoqli otlar yoki madaniy jihatdan yuklangan so‘zlar uchun mos keladi.

Xulosa. Yangi so‘zlarni xitoy tiliga tarjima qilish aniq, ixcham va oson tarqaladigan tarjima terminlariga erishish uchun transliteratsiya, semantik tarjima va ikkalasining kombinatsiyasini birlashtirgan holda, so‘zning kelib chiqishi, madaniy asoslari (konteksti, fon) va til odatlariga asoslangan holda tarjimani dinamik ravishda tartibga solishni talab qiladi. “Manba tili va tarjima qilinayotgan til o‘rtasida til muhitidagi madaniy bo‘shliqlar katta bo‘lgan so‘zlar uchun “saqlash strategiyasi” qo‘llaniladi, ayniqsa so‘zma-so‘z tarjima va transliteratsiyalarda bu yaxshiroq effekt beradi. Kontekstda madaniy bo‘shliqlar minimal bo‘lgan so‘zlar uchun “almashtirish strategiyasi” tavsiya etiladi, bunda assimilyatsiya va erkin tarjima qilish ayniqsa samarali bo‘ladi. Shu bilan birga, tarjimada auditoriyaning bilim darajasi, fikrlash tarzi va madaniy odatlari kabi kontekstual omillarni ham hisobga olish va moslashuvchan tarjima

usullarini qo‘llash kerak”.[11] Bundan tashqari, muloqot maqsadidan kelib chiqib, tarjima ortidagi mafkurani to‘liq ko‘rib chiqish, tarjima vositalaridan mohirona foydalanish va tili o‘rganilayotgan mamlakat tarixiy, madaniy belgilarini yetkazib bera olish ham juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 窦卫霖, 杜海紫. 中国当下流行新词翻译的可接受性研究. 华东师范大学学报(哲学社会科学版), 2018, Vol. 50 Issue (6): 65-71.

2. Xasanova Sh. Xitoy tilidan o‘zbek va o‘zbek tilidan xitoy tiliga qilingan asarlar tarjimasi. / International scientific and practical conference Uzbekistan-China: development of historicalcultural, scientific and economic relations, 5(26), Nov., 2025.

3. Sulaymanov Kamoliddin Shovkat o‘g‘li, Ziyayeva S.A. Xitoy tilida so’z o‘zlashtirish usuli. / Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya maqolasi.

4. Husan Tugalov. Xitoy tilida o'zlashma so'zlarning tarjimadagi muammolari. Academic Research in Educational Sciences, Volume 3 | Issue 6 | 2022.

5. 发布的中国翻译行业发展报告. 中国翻译协会，2024 年 3 月. 2024 China Translation Industry Development Report (1). https://tandf.figshare.com.

6. 现代汉语词典. 第 6 版. 商务印刷馆，北京：2015.

7. Qosimov I., Ma Syuemey. O'zbekcha-xitoycha lug‘at. – Toshkent: “Akademnashr”, 2023.

8. Қосимов И., Ронг Ли. Хитойча-ўзбекча сўзлашгич. 3-нашр. – Тошкент: “Академнашр”, 2019.

9. https://bkrs.info/slovo.php?ch=阿里舍尔•纳沃伊: 阿里舍尔•纳沃伊 ālǐshè’ěr nàwòyī Алишер Навои (узбекский поэт, мыслитель и государственный деятель).

[11] 窦卫霖，杜海紫. 中国当下流行新词翻译的可接受性研究. 华东师范大学学报(哲学社会科学版), 2018, Vol. 50 Issue (6): 65-71.